

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

TURSUNOVA AZIZA XOSHIMOVNA

**MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI
MISOLIDA)**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Tursunova Aziza Xashimovna

Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish
(Qashqadaryo viloyati misolida).....3

Турсунова Азиза Хашимовна

Эконометрическое моделирование устойчивого развития экономической
системы региона (на примере Кашкадарьинской области).....29

Tursunova Aziza Hashimovna

Econometric modeling of the sustainable development of the economic system of the
region (using the example of Kashkadarya region).....55

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

TURSUNOVA AZIZA XOSHIMOVNA

**MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI
MISOLIDA)**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt4221 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimov Nodirjon Nusriddinovich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Baxtiyor Ruzmetov
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, professor

Karimov Javlon Qo'ziyevich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz.

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I. S. Abdullaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d, professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosida ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi (PhD))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish jarayoni chuqurlashayotgan va jahon bozorlarida raqobat darajasining oshib borishi sharoitida hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra "Amerika Qo'shma Shtatlari yalpi ichki mahsulotning 16,5 foizini Kaliforniya shtati, mazkur ko'rsatkich XXR Guandong provinsiyasi ulushi 12,8 foizni, Yaponiyaning Tokio prefekturasi ulushi 20,5 foizni va Germaniya Shimoliy Reyn-Vestfaliya shtati ulushi 23,2 foizni tashkil qilmoqda¹".

Jahonda globallashtirish jarayoni chuqurlashayotgan, ikkinchi tomondan jahon bozorlarida raqobat darajasining oshib borishi hududlar iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishda yangi yondashuvlarni qo'llashni taqozo etmoqda. Jahondagi globallashtirish jarayoni sharoitida mamlakatlar mintaqalarni barqaror iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy ta'minoti, jumladan modellashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu borada iqtisodiy modellashtirishning model va usullarini mintaqalarning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini, alohida hududning tabiiy-tarixiy o'ziga xos jihatlari va strategik manfaatlarini, rivojlanishning optimal o'sish sur'atlarini, mintaqa iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni va ularni kompleks rivojlantirishni hamda iqtisodiy tizimni barqaror rivojlantirishda muqobil faoliyatni ta'minlash kabilarni e'tiborga olgan holda modellashtirish imkoniyatlaridan foydalanishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimiz hududlarini taraqqiy ettirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasida "hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish masshtablarni kengaytirish hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo sanoat va eksport salohiyatini o'stirish yo'li bilan qiyoslangan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish²" vazifalari belgilangan. Mazkur jarayonda Qashqadaryo viloyatini iqtisodiy rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etib, hudud iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlashda ekonometrik modellashtirish usullarini qo'llagan holda ularni hududning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi" Farmoni, 2019-yil 17-apreldagi PQ-4291 son "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 585- son "Qashqadaryo viloyatining ilmiy-texnik va innovatsion

¹ https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_U.S._states_and_territories_by_GDP;
https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_Chinese_administrative_divisions_by_GDP;
https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_Japanese_prefectures_by_GDP;
https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_German_states_by_GRP.

² "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son Farmonining 1-ilovasi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". Lex.uz.

salohiyatini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 26-apreldagi 308-son “Qashqadaryo viloyatida qo‘shimcha kichik sanoat zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 11-iyundagi 484-son “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda hudud iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish masalalariga xorijlik va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlarida katta e‘tibor qaratilgan.

Bu sohada xorijlik mualliflardan M.Keyns, J.K.Gelbreyt, M.Klark, M. Rorter kabilar asarlari shular jumlasidan. Rossiyalik olimlardan V.M.Granberg, V.M. Gavrilov, G.V. Gutman, B.K. Zlobin, V.A. Los, V.M. Matrasova, O.V. Mixalev, O.V. Bayldina, V.YE. Vasenko, T.A.Kracnova, N.D. Kondratev, V.V.Leontev, S.G.Svetunkov, I.S.Svetunkov va boshqalarning tadqiqotlari katta qiziqish uyg‘otadi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz olimlarining ham tadqiqotlarida mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish masalalarini ayrim jihatlari o‘rganilgan. Xususan, mintaqalarni kompleks va mutanosib rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlari V.Q. Qobulov, B.Y.Xodiyev, T.SH.Shodiyev, T.D. Doschanov, T.M. Ahmedov, N.K. Aimbetov, B.Ro‘zmetov, A.M.Sodiqov, F.T.Egamberdiyev, I.S. Abdullayev va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan, ammo mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish muammolari chuqur o‘rganilmagan .

Keyingi yillarda mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish masalalariga, mintaqalarni barqaror rivojlantirishni ekonometrik modellashtirishga, mintaqalarning rivojlanish darajasi hamda iqtisodiy salohiyatiga baho berishga, ekologik barqaror taraqqiyotga erishishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar kengaymoqda.

Shu bilan birga bozor iqtisodiyoti sharoitlarida hamda ekologik omillarni hisobga olib, iqtisodiy tizimni barqaror rivojlantirish nazariy-uslubiy jihatlari, mintaqalarni barqaror rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillarni ustuvorlik darajalarini aniqlash bo‘yicha usullarni ishlab chiqish zarurati tug‘ilmoqda.

Ko‘rsatib o‘tilgan muammolarning dolzarbligi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tamoyillari va yo‘nalishlari, istiqloq yillarida ularning rivojlanish tendensiyasini tahlil qilish va differensiallashuv darajasini baholash, mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish, mintaqaviy rivojlanishning xorijiy davlatlar tajribasini bizning amaliyotimizda qo‘llash masalalari yetarli darajada o‘rganilmaganligi tadqiqot mavzusini tanlanishining zarurligini belgilaydi.

Tadqiqot ishida mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning barcha jihatlarni to‘liq qamrab olish, shuningdek uni barqaror rivojlantirish tendensiyasi

uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan ekologik muammolarning markazida joylashgan Qashqadaryo viloyatini iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning asosiy tamoyillari hamda yo'nalishlarini ajratib ko'rsatishga, uning ijtimoiy - iqtisodiy va ekologik jihatlarini hisobga olgan holda rivojlanishini ekonometrik modellari yordamida tahlil qilinadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasa sining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida)" mavzusida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda takomillashtirilgan ekonometrik modellashtirish model va usullarini qo'llagan holda Qashqadaryo viloyati iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi va hal etildi:

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni ekonometrik modellashtirishni mazmun va mohiyatini ochib berish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqaviy rivojlanishni ekonometrik modellarini asoslash;

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari tahlil qilish va uning ekonometrik modellarini tuzish;

mintaqa iqtisodiy tizimi holatini tahlil etish hamda iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni ko'r omilli ekonometrik modellarini ishlab chiqish, ularning maqbul variantlarini tanlash hamda tanlangan model bo'yicha prognoz qilish.

Tadqiqotning obyekti Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotda iqtisodiy-matematik modellashtirish, ehtimol va iqtisodiy-statistik, ko'r omilli ekonometrik tahlil, iqtisodiy-statistik, monografik hisoblash, dasturiy maqsadli, tizimli-mantiqli, SWOT tahlil, usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishda tarmoqda mavjud mavsumiylikni yuqori (1,04-1,31), o'rta (0,97-1,03), quyi (0,69-0,96) darajalarini e'tiborga olgan holda multiplikativ va aditiv ko'p omilli ekonometrik modellari ishlab chiqilgan;

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish dinamikasi va ekologik vaziyatni hisobga olgan holda Kuznets ekologik egri chizig'ining (KEECH) ikkinchi va uchinchi tartibli modifikatsion modellari taklif qilingan;

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishda dekapling omili va samarasi natijalariga ko'ra rivojlantirishda (0,1-0,3) yuqori, (0,4-0,7) o'rta, (0,8-1,0) kam bosim mavjudligi aniqlangan;

Qashqadaryo viloyatida mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish yo'nalishlari asoslab berilgan;

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni ekonometrik modellari yaratilgan;

iqtisodiy tizimga jalb qilinayotgan investitsiya hajmini yanada oshirish hisobiga ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish fondlari va foydalanilmayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish mintaqa iqtisodiy tizimining barqaror rivojlantirishga ijobiy ta'siri baholangan;

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish istiqbollari belgilash va ustuvor tarmoqlarni aniqlashning ko'r omilli ekonometrik tahlillar asosida o'rta muddatli 2025-2030-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalari va xulosalarining ishonchliligi muallif tomonidan tadqiqot ishiga doir xorijiy hamda mahalliy olimlar olib borayotgan ilmiy-nazariy, metodologik tadqiqotlari asosida, foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbaalardan olinganligi bilan, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining ishonchliligi mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishga doir qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qanchalik darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalarni vakolatli vazirlik, tuzilma va tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini modellashtirishning uslubiy arraratini mintaqa xusiyatlaridan kelib chiqqan holda ko'r omilli ekonometrik modellarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar asosida takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqotda maqsadli modellashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqarishga jalb etilmagan mehnat va ishlab chiqarish salohiyatini aniqlash, foydalanilmagan imkoniyatlardan samarali foydalanish, mintaqaviy rivojlantirishning o'rta va uzoq muddatli mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek oliy o'quv yurtlarida «Ekonometrika asoslari», «Iqtisodiy matematik modellar va usullar» va «Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash» fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishda tarmoqda mavjud mavsumiylikni yuqori (1,04-1,31), o'rta (0,97-1,03), quyi (0,69-0,96) darajalarini e'tiborga olgan holda multiplikativ va aditiv ko'p omilli ekonometrik modellari Qashqadaryo viloyati xokimligi faoliyatiga tatbiq qilingan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 14-fevraldagi 07-17/1477-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mintaqada ishlab chiqarish tarmoqlarini istiqbolli sohalari aniqlanib, mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlanishiga erishish imkoniyati paydo bo'lgan;

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish dinamikasi va ekologik vaziyatni hisobga olib, Kuznets ekologik egri chizig'ining (KEECH) ikkinchi va uchinchi tartibli modifikatsion modellari Qashqadaryo viloyati xokimligi faoliyatiga tatbiq qilingan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 14-fevraldagi 07-17/1477-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida mintaqada iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishda mavjud resurs va salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini bergan;

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishda dekapling omili va samarasi natijalariga ko'ra rivojlantirishda (0,1-0,3) yuqori, (0,4-0,7) o'rta, (0,8-1,0) kam bosim mintaqada iqtisodiy tizimiga ta'sir etuvchi omillarni ustuvorlik darajasini aniqlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 14-fevraldagi 07-17/1477-son ma'lumotnomasi) Natijada, mintaqada iqtisodiy tizimni barqaror rivojlantirishga xizmat qilgan;

Qashqadaryo viloyatida mintaqada iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha prognoz qiymatlari Qashqadaryo viloyati xokimligi faoliyatiga tatbiq qilingan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 14-fevraldagi 07-17/1477-son ma'lumotnomasi) Natijada ARIMA (0,2,2) modeli yordamida iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ortimal prognoz ko'rsatkichlari aniqlanib unga ko'ra, 2025-2030-yillar mobaynida YAHMni 6.9-9.0 foizgacha o'sish imkoniyati aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining arrobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 ta xorijiy jurnalda, shuningdek xalqaro va respublika ilmiy-amalliy konferensiya to'plamlarida 9 ta ma'ruza tezislari, ma'ruza tezislari chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining elon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chor etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil torgan bo'lib, umumiy hajmi 135 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy ishning yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliyotga joriy qilinishi ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni nazariy jihatlari, Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni evolyutsiyasi tadqiq etishda zamonaviy uslubiy yondoshuvlar, ilg‘or horij tajribasi o‘rganilgan.

O‘zbekistonning barqaror rivojlanishga yondashuvi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni qamrab oluvchi kompleks strategiyaga asoslanadi. Mamlakat o‘z oldiga ulkan maqsadlarni qo‘ygan, jumladan, 2026-yilga borib qashshoqlikni ikki baravarga kamaytirish va 2030-yilga borib uni yanada 5 foizga qisqartirish rejasi. Shuningdek, yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik darajasini pasaytirish va 2030-yilga borib qo‘shimcha 1 million yoshni ish bilan ta‘minlashga e‘tibor qaratilmoqda. Infratuzilmani rivojlantirish. O‘zbekiston strategiyasining yana bir muhim jihati hisoblanadi. Rejalarga barcha aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash, elektrlashtirilgan temir yo‘llarni ko‘paytirish, yo‘l qurilishi va rekonstruksiya qilish uchun katta miqdorda sarmoya kiritish kiradi.

O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”ga hamohangdir. Ushbu strategiya O‘zbekistonni 2030-yilga borib o‘rtacha daromaddan yuqori bo‘lgan davlatga ko‘tarishga qaratilgan. U aniq, o‘lchanadigan maqsadlarga, jumladan, qashshoqlikni kamaytirish va ta‘limga qamrab olishni yaxshilashga qaratilgan. Strategiya shuningdek, boshqaruv va inklyuziv institutlarni takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurash, fuqarolik jamiyati va markazsizlashtirishni rag‘batlantirish, qishloq taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlash va zaif hududlarda barqaror rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan.

A.M.Sodiqovning ta‘kidlashicha, mintaqaviy iqtisodiyot tabiiy-iqtisodiy va boshqa omillarni mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish bilan bevosita bog‘lab o‘rganadi. Uning doirasiga, ayrim iqtisodchilar ta‘kidlaganlaridek, demografiya, tabiiy resurslar va sharoitlar, ekologiya va h.k. muammolarni chuqur o‘rganish kirmaydi. U iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, demografiya, ekologiya, tabiatdan foydalanish iqtisodi kabi fanlarning ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanadi. Bozor institutlari va infratuzilmasining shakllanishi raqobatli bozor muhitini yaratish muammosini tarmoq darajasidan mintaqaviy darajaga o‘tkazib yuboradi. Mamlakat iqtisodiyotining mintaqaviy tizimi tarmoq tizimiga qaraganda ancha barqarordir.



1-rasm. Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning yangi tuzilmasi³

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy, atrof-muhit va innovatsion yo'nalishlarni majmua sifatida ko'rib chiqib, hamda, kelgusida ushbu yo'nalishlarning eng muhim jihatlarini o'z ichiga oluvchi maqsadli yo'nalishlari aniqlandi. Fikrimizcha, iqtisodiy tizimni barqaror rivojlantirishda eng avvalo iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilishning quyidagi tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim.

¹Manba muallif ishlanmasi

Modernizatsiyalashgan mamlakatlarni eng ilg'or tajribalarini o'rganib, iqtisodiy tizimni barqaror rivojlantirishning mumkin bo'lgan barcha ssenariylarini ishlab chiqish. Ishlab chiqarish jarayonidagi maqsad vazifalarning o'zaro ta'siri xususiyatlarini o'rganish, baholash hamda tahlil qilib tartiblashtirish kerak. Mintaqalarda byudjet barqarorligini ta'minlash tamoyili

- byudjet resurslaridan ratsional foydalanish
- harajat turlari bo'yicha samarali boshqaruv
- sog'lom raqobatni shakllantirish
- soliq yukini oshirmasdan byudjet daromadlarini ko'paytirish yo'llaridan foydalanish.

Byudjet barqarorligini quyidagi formula orqali aniqlash tavsiya qilinadi:

$$Bb = \frac{O'd}{D-O'd} \quad (1.3.1)$$

bu yerda,

Bb- byudjet barqarorligi,

O'd- o'tkazma daromadlar,

*D-*daromadlar.

Mamlakatlarning tizimli, yaxlit ko'rinishining talabi milliy darajada iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, va tashkiliy-boshqaruv jihatlarining ortib borayotgan o'zaro ta'siri bilan bog'lashdir. Masalan, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish moliyaviy va ijtimoiy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq: korxonalar daromadlari, ish haqi, byudjetning daromad manbalari.

Iqtisodiy tizimni barqaror rivojlantirish tamoyillari texnik iqtisodiy rivojlanish qoidalari, hamda milliy iqtisodiyot ustuvorliklarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, tarkibiy qismlarini mustahkamlashi lozim:

- egiluvchanlik;
- tejamkorlik;
- istiqbollilik;
- ekologik;
- insonparvarlik.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan tamoyillarni amalga oshirish iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilish hamda ushbu sohani chuqur tahlil qilib borish imkoniyatlarini yaratib, ustuvor tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

O.I. Kulikova iqtisodiy tizimni barqaror rivojlantirishda yaxlitlikni ifodalovchi quyidagi tamoyillarni taklif qilgan: tizimlilik tamoyili, maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili, layoqatlilik tamoyili, iyerarxiyaviylik tamoyili, iqtisodiy tizim elementlari o'rtasida o'z vaqtida barqaror ma'lumotlar oqimi zaruriylikni ifodalovchi teskari aloqa tamoyili.

R.A. Fatxutdinov fikriga ko'ra, yuqorida ko'rsatilgan tizimli tamoyillarga barqaror rivojlanishning umumiy tamoyillarini qo'shib qo'yish zarur:

- ichki va tashqi ta'sirchanlik tamoyili;
- xabardorlik tamoyili;
- ishonchlilik tamoyili.

A.I. Kochnev o'zining tadqiqotlarida barqaror rivojlanish tamoyillarini ajratib ko'rsatadi: maqsadga yo'nalganlik, moslashuvchanlik, yaxlitlik, dinamiklik .

Yuqorida ko'rsatilgan mualliflarning taklif qilgan barqaror rivojlanish tamoyillarining zaruriy deb hisoblagan holda, mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishga qo'yilgan maqsadlariga erishish imkoniyatlari to'g'risida ayrim xulosalar berish mumkin:

tabiatga zararli ta'sir ko'rsatmasdan ishlab chiqarishni amalga oshirishga imkon beruvchi atrof-muhit bilan uyg'un holda o'zaro munosabatlarni amalga oshirish jarayonini shakllantirish;

ijtimoiy rivojlanish darajasini oshirish maqsadida iqtisodiy faoliyat natijalaridan foydalanish imkonini beruvchi iqtisodiyot va ijtimoiy soha o'rtasida muvozanat uchun shart-sharoitlar yaratish;

kelgusi va hozirgi avlodlar manfaatlariga yo'naltirilgan mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini amalga oshirish.

Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish tamoyillarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asoslangan quyidagi xususiy tamoyillarni ajratib ko'rsatishga zamin yaratildi:

mintaqa iqtisodiy tizimi elementlarining o'zaro bog'liq rivojlanishini hisobga olish tamoyili, ya'ni, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarning zarurligini va muhimligini ko'rsatuvchi elementlar o'rtasidagi rivojlanish muvozanatiga amal qilinishi;

mintaqa iqtisodiy tizimining turli sohalarida rivojlanish dinamikasining barqarorligiga erishish tamoyili, jumladan iqtisodiy natijalarga erishish, tashqi iqtisodiy faoliyat olib borishda samaradorlik, ijtimoiy barqarorlikni oshirish, ekologik xavfsizlikni saqlash, mintaqa iqtisodiy tizimi va uning quyi tizimlarida barqaror rivojlanishning talab qilingan darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar miqdorini aniqlash orqali topiladi;

mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni doimiy ta'minlovchi resurslarning paydo bo'lishi bilan ifodalanadigan so'ngi maqsadlarning ustuvorlik tamoyili.

Bugungi kunda har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizim, shu jumladan mintaqa iqtisodiy tizimi maxsus tamoyillarga rioya qilgan holda barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirish hisobiga barqaror rivojlanish sohasida yetakchilikka intiladi. Barqaror rivojlanayotgan mintaqa iqtisodiy tizimi quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

aholi huquqlarini qo'llab-quvvatlash va hurmat qilish;

yashash shakllarining turli tumanligini saqlagan holda, atrof-muhitga eng kam zarar yetkazilish asosida tabiiy resurslardan foydalanish;

iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy xavflarni va ta'sirlarni aniqlash va ularni kamaytirish;

manfaatdor tomonlar bilan ochiq va haqiqiy munosabatlar, qaror qabul qilishda ularning fikr va manfaatlarini hisobga olish;

mintaqa iqtisodiy tizimining rentabelligi va samaradorligini oshirish;

jahon bozorida yaratilgan halqaro biznes amaliyoti va ahloqiy me'yorlar asosida munosabatlar o'rnatish;

mintaqa iqtisodiy tizimi faoliyati to'g'risida turli xil manfaatdor shaxslarni o'z vaqtida habardor qilish.

Yuqorida ko'rsatilgan bandlarni umumlashtirib, barqaror rivojlanish tamoyillari klassifikatsiyani taklif qilamiz (2 rasm).

Mintaqa iqtisodiy tizimida barqaror rivojlanish monitoringini o'tkazish jarayonida bir qator asosiy tamoyillarni hisobga olish zarur. Ular jumlasiga:

barqaror rivojlanish monitoringini amalga oshirishda foydalaniladigan uzluksizlik tamoyili, bunda iqtisodiy tizim unsurlarining faoliyatini amalga oshirish shart-sharoitlari, ularning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari, hamda tashqi omillarni ta'sir darajasi doimiy ravishda kuzatuv olib borilishi talab qilinadi;


qo'llanilayotgan ko'rsatkichlarning mosligi, hamda ularni hisoblash usullari, uslubiy vositalar sifatini aniqlovchi barqaror rivojlanish monitoringini amalga oshirishning maqsadlilik va aniqlik tamoyili;

tashqi va ichki omillarning o'zgarishi sharoitida monitoringni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi mintaqqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish monitoringini amalga oshirish jarayonida oshkoralik tamoyili;

monitoring natijasida mintaqqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish ko'rsatkichlari shaklini o'zgartirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni qamrab olishi lozimligini ifodalovchi to'liqlik tamoyili;

faqatgina tasdiqlangan va asoslangan axborot ma'lumotlaridan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi barqaror rivojlanish monitoringi javob berishi lozim bo'lgan ishonchlilik tamoyili;

maqbul qaror qabul qilish uchun yetarli bo'lgan to'liq ma'lumotni tuzatish va mintaqqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlanishini monitoring qilish uchun xos bo'lgan axborotlarning dolzarblik tamoyili.




2-rasm. Hudud iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish tamoyillari⁴

⁴ Manba muallif ishlanmasi

Dissertatsiyaning “Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishda turli xil modellarning taqqoslama tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni ilg‘or xorijiy tajribalari, Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar tahlili, Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni ekonometrik modellarini tuzish.

Iqtisodiy tizimni barqaror rivojlantirishda A.Fisher va K.Klark iqtisodiyot tarkibi modelini ishlab chiqqanlar. A.Fisher va K. Klark modeliga asoslanib, birlamchi soha tarkibiga ishlab chiqarishni xom ashyo bilan ta’minlaydigan iqtisodiy faoliyat turlari, ikkilamchi sohaga xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantiruvchi faoliyat turlari, uchlamchi sohaga esa dastlabki ikkitasiga xizmatlar ko’rsatuvchi faoliyat turlari kiritiladi.



3- rasm – Iqtisodiyot tarkibining Fisher-Klark modeli⁵

D. Bellning iqtisodiyotning beshta sohali modeli ancha mashhur hisoblanadi. Modelda xo‘jalik munosabatlarida egallagan o‘rinlariga ko‘ra qishloq xo‘jaligidan boshlab bilimlar iqtisodiyotigacha ketma ketlikni hisobga olgan holda, iqtisodiy faoliyat turlari darajalar ko‘rinishida joylashtiriladi.

Milliy iqtisodiyot tarkibining zamonaviy nazariy modellaridan yana biri, S.Lyubimsev modeli hisoblanib, unga ko‘ra butun iqtisodiyot ikkita asosiy sohaga: haqiqiy va sohta iqtisodiyotga bo‘linadi ular ham o‘z navbatida kichik sohalarga ajratiladi. (1- jadval).

⁵ Fisher A.G.B. Production, primary, secondary and tertiary. — Economic Record 15.1. — 1939. — S. 24—38., Fisher A. The Clash of Progress and Security. — London : Macmillan, 1935., Clark C. The Conditions of Economic Progress. — London : Macmillan, 1940.

S. Lyubimsevning iqtisodiyot tarkibi modeli⁶

Soha	Kichik soha	Tarkibiy qismlari
Haqiqiy iqtisodiyot	Birinchi	- xom ashyo ishlab chiqarish (qishloq xo'jaligi, ovchilik, baliqchilik, qazib oluvchi sanoat); - sanoat ishlab chiqarish.
	Ikkinchi	- moddiy xizmatlar (transport, aloqa, kommunal xo'jalik); - savdo ; - pul aylanishi.
	Uchinchi	Nomoddiy xizmatlar (sog'liqni saqlash, fan, maslahatchilik va huquqiy xizmatlar); - ijtimoiy xizmatlar; - davlat boshqaruvi.
Sohta iqtisodiyot	Birinchi	- informatsion va unga mos keluvchi virtual ilmiy ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash (yoshartirish va sog'liqni tiklashning yangi usullaridan foydalanilayotgan qismlari), umumiy axborot manbalari; - virtual mahsulotlar savdosi.
	Ikkinchi	- moliya sohasi; - virtual pul aylanmasi

Ushbu yondashuv iqtisodiyotni tarkibiy qismlarga ajratish bo'yicha o'ziga jalb qiluvchi yondashuv bo'lishiga qaramasdan, undan amalda umumiy hajmiga nisbatan mos statistik ma'lumotlar yetishmasligi sababli foydalanish imkoni yo'q. Mamlakatning mintaqaviy iqtisodiyotini tarkibiy qismlarga ajratish bo'yicha keltirilgan nazariy modellar mamlakat iqtisodiyoti tarkibi tahlilining zamonaviy metodologiyasi asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida mintaqaviy iqtisodiyot sohasida tadqiqot olib boruvchi olimlardan A.Soliyev, T.Ahmedov, A.Qodirov, F.Egamberdiyev, B.Ro'zmetov, A.Sodiqov, Yu.Korolyev, G. Sarkasiyan va boshqalarning ilmiy izlanishlarida mintaqalar iqtisodiyotining balanslashgan strukturasi shakllanishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish, mineral xom-ashyo resurslariga boy mintaqalarda xom-ashyoni qayta ishlashga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan sikllarni o'z ichiga oluvchi investitsion loyihalarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida mintaqani kompleks rivojlantirish va boshqa tamoyillarga e'tibor qaratilgan. A.M. Sodiqov o'zining mintaqaviy rivojlanish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarida mintaqalarning optimal rivojlanish funksiyalarini tartibga solish mexanizmini ishlab chiqqan.

⁶ Lyubimseva S. Законы структурной эволюции экономических систем //Экономист. - 2003. - №10. - S.29 - 40.

B.Ruzmetov tomonidan mintaqalarni kompleks rivojlantirish ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqilgan .

Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlanishni aniqlash uchun mezonlar tizimiga mos ishlanmalarni talab qiluvchi barqaror rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlari bo'yicha (iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion, ekologik, institusional) kompleks baholash o'tkazish zarur

Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishda iqtisodiy o'sish va atrof-muhitning ifloslanish darajasi o'rtasida o'zaro munosabatlarni baholash uchun dekapling (ajratish) omili va Kuznets ekologik egri chizig'i tahlili natijalarini ifodalovchi modellardan foydalaniladi. Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik yo'nalishida o'zaro ta'sirni ifodalovchi "dekapling" tushunchasini iqtisodiy o'sish darajasi va atrof-muhitga zararli ta'sir hamda tabiiy resurslar iste'molining kelishuvi sifatida tushuniladi. Dekapling samarasini tatbiq qilish uchun ekologik yukning o'sish sur'ati ushbu davrdagi iqtisodiy o'sish sur'atiga taqqoslaganda kamayish tendensiyasiga ega bo'lishi zarur. Xorijiy mualliflarning bir qator tadqiqotlariga asoslangan holda dekapling omili (D_t) tadqiq qilinayotgan davr boshi va oxiriga ekologik yuk darajasining YAHMga nisbati sifatida baholanadi. Olingan natijalar bir birlikka nisbatan baholanadi: tadqiq qilinayotgan davrda koeffitsiyent qiymati bir birlikdan kichik bo'lsa, dekapling mavjudligini anglatadi, qiymat bir birlikdan katta bo'lsa, mos holda ko'rsatkichlar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Dekapling omili (D_t) Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti usuli bo'yicha yuqorida keltirilgandek aniqlanib, biroq ko'rsatilgan nisbat bir birlikdan ayriladi

$$D_t = 1 - \frac{AE_t}{Q_t} \Big/ \frac{AE_{t-1}}{Q_{t-1}} \quad (1)$$

bu yerda,

AE_t - atrof-muhitga zararli ta'sirni aks ettiruvchi ko'rsatkich (adverse effect),

Q_t – iqtisodiy tizim rivojlanishini aks ettiruvchi ko'rsatkich (quantity) (YAIM, YAHM, ishlab chiqarish hajmi va boshqalar).

Yuqorida ko'rsatilgan holatda, D_t -qiymati nolga teng yoki manfiy bo'lsa, dekapling samarasi paydo bo'lishi amri mahol. Mos holda, D_t qiymati musbat bo'lsa, dekapling mavjudligini bildiradi. Bunda, aniqlangan koeffitsiyent qiymati bir birlikka qanchalik yaqin bo'lsa, iqtisodiyotning atrof-muhitga kamroq bosim berayotganligini anglab olish mumkin. Oddiy hisob kitoblarga asoslangan, iqtisodiy-ekologik siyosatni baholashda yetarli darajada mantiqqa ega bo'lgan, dekapling omili keng miqyosda tan olinib, ham o'zi alohida hamda boshqa usullar bilan birgalikda foydalanilib kelinmoqda.

Ushbu tadqiqot ishida mintaqqa iqtisodiy tizimida barqaror rivojlanishni tahlil qilish uchun ushbu tizim elementlari hisoblangan mintaqaviy iqtisodiy o'sish va atrof-muhitning zararlanishi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ekonometrik modellashtirish maqsadida Kuznets ekologik egri chizig'i (KEECH) tahlilidan ham foydalaniladi. Shu munosabat bilan KEECHning uch xil turdagi modellari ko'rib chiqiladi, ya'ni chiziqli tenglama, ikkinchi va uchinchi tartibli polinomal tenglamalar:

$$P = b_0 + b_1Q + b_2Q^2 + b_3Q^3 \quad (2)$$

bu yerda:

P – ekologik ko‘rsatkich (pollution),

Q –iqtisodiy tizim rivojlanishini aks ettiruvchi ko‘rsatkich (quantity) (YAHM, ishlab chiqarish hajmi va boshqalar).

b_0, b_1, b_2, b_3 - regressiya tenglamasi parametrlari.

Bundan tashqari KEECH gipotezasini tekshirish uchun quyidagi modifikatsion modeldan foydalanish ham tavsiya qilinadi:

$$\ln(E/P) = \beta_i + \varphi_t + b_1 \ln(Q/P)_{it} + b_2 \ln(Q/P)_{it}^2 + \varepsilon_{it} \quad (3)$$

bu yerda:

E – zararli moddalar emissiyasi (emission),

P -aholi soni,

Q –iqtisodiy tizim rivojlanishini aks ettiruvchi ko‘rsatkich (quantity) (YAHM, ishlab chiqarish hajmi va boshqalar),

i, t –obyekt va vaqtni ifodalovchi indekslar,

b_0, b_1 - regressiya tenglamasi parametrlari,

β_i, φ_t -yakka va vaqtli samaralar,

- qoldiq tarkibiy qism.

Tadqiqot ishida atrof-muhit zararlanishining umumiy ko‘rsatkichi sifatida statsionar va harakatlanuvchi manbalardan chiquvchi zararli moddalarning atrof-muhitga chiqarilishi ko‘rib chiqilgan hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlar sifatida YAHMning 2010-yil taqqoslama baholardagi qiymatlaridan foydalanilgan. Bundan tashqari, tahlil qilinayotgan ma’lumotlarning bir jinsli bo‘lmasligini kamaytirish maqsadida alohida hisob-kitoblarda ushbu qiymatlarning logarifmlari bilan almashtirilgan.

2-jadval


Mintaqa iqtisodiy tizimida barqaror rivojlanish ifodalovchi ko‘rsatkichlar⁷

Yillar	Statsionar manbalar va transportdan parnik gazi xosil qiluvchi chiqindilar (ming tonna)	YAHM joriy narxlarda qiymati (mlrd. so‘m)	YAHM taqqoslama narxlarda qiymati (2010-yil narx) (mlrd. so‘m)	Aholi soni (ming kishi)
2017	29.746	595.2	595.20	1453.9
2018	38.859	803.0	638.80	1477.8
2019	52.983	1 040.1	756.38	1504.2
2020	56.294	1 255.3	980.76	1530.8
2021	43.12	1 534.0	1173.43	1561.6
2022	58.048	2 058.0	1432.87	1601.1
2023	49.033	2 624.6	2441.15	1629.1
2024	50.408	3 326.8	3263.24	1653.8

⁷ Manba muallif ishlanmasi

2025	54.196	4 129.6	4086.63	1684.1
2026	52.688	5 061.0	5050.17	1715.6
2027	48.317	6 167.7	6325.11	1746.9
2028	50.262	6 778.8	8076.59	1776.7
2029	55.454	11 57.2	9338.12	1804.7
2030	59.396	15 54.2	11122.95	1835.5

Yuqorida keltirilgan xususiy xulosalardan kelib chiqib, mintaqa iqtisodiy tizimida KEECH asosida tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, Qashqadaryo viloyatida atrof-muhitning ifloslanish darajasi bilan YAHM o'sish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik juda past darajada bog'lanishga ega ekanligi hamda modelga kiritilmagan boshqa omilarning ulushi esa juda yuqori darajada ekanligini ta'kidlash joiz.



4-rasm Aholi soniga nisbatan atrof-muhitning ifloslanishi ($\ln(E/P)$) va YAHM ($\ln(Q/P)$) o'rtasidagi bog'liqlikning ikkinchi tartibli polinomal funksiyasi⁸

Formulaga asosan aholi soniga nisbatan Kuznets ekologik egri chizig'i kvadratik funksiya orqali ifodalaganda 4- rasmdagi holat ro'y berdi. Bundan kelib chiqib Qashqadaryo viloyatida aholi soniga nisbatan statsionar va xarakterlanuvchi manbalardan chiquvchi zararli moddalarning YAHMga bog'liqligi ya'ni determinatsiya koeffitsiyenti 15.7 foizni, modelga kiritilmagan omillar ulushi esa, 74.3 foizni tashkil qilayotganligini anglab olish mumkin. Bu esa o'z navbatida, YAHM hajmini ko'paytirish natijasida, atrof-muhitga salbiy ta'sir darajasining ortishiga imkoniyat degani emas, balki atrof-muhitga zararsiz, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni ekologik toza texnologiyalar bilan almashtirish natijasida amalga oshirish lozimligini anglatadi. Bundan tashqari ekologik tadqiqotlarda YAHMdan tashqari modelga kiritilmagan omillarning ulushini tahlil qilish, hamda ushbu omillar ta'siri darajasini kamaytirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan tahlillar natijasi ham ushbu holatni ifodalaganligi sababli mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarida bir mahsulotli ishlab

⁸ Manba muallif ishlanmasi

chiqarishdan voz kechib, dunyo mamlakatlarida eng ko‘p import qilinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari turlarini tadqiq qilib, eksport qilinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, ilmiy tadqiqot ishlari va ishlab chiqarish jarayonlari integratsiyasini kuchaytirishda atrof-muhitga ekologik yukning eng minimal darajasini saqlab qolish mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish resurslari qoidaga ko‘ra ikkita asosiy – kapital resurslar (K) va mehnat resurslariga (L) bo‘linadi. Natija esa ishlab chiqarish faoliyatini aks ettiruvchi har qanday ko‘rsatkich bo‘lishi mumkin (natural va qiymat ifodasidagi ishlab chiqarish hajmi, savdo hajmi, yalpi foyda va boshqalar). Ishlab chiqarish resurslarining kompleks sonli o‘zgaruvchisi quyidagi qoida bo‘yicha shakllanadi: haqiqiy qismga – kapital, mavhum qismga – mehnat resurslari kiradi, bunday funksiyaning kompleks sonli argumenti quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Hisob-kitoblarga asosan aylanma mablag‘larni salmog‘i hamda raxbar xodimlar bilan ishchilar mutanosibliyi YAHMni barqaror iqtisodiy o‘shishiga ijobiy ta’sir qilar ekan.

Dissertatsiyaning **“Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishda ekonometrik modellardan foydalanish istiqbollari”** nomli uchinchi bobida Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni bugungi holati, mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni ko‘p omilli ekonometrik modellar asosida baholash, mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni prognozlashning ekonometrik modellari ishlab chiqilgan.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari viloyat yalpi mintaqaviy mahsulotining tarkibiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. YAHM tarmoq tarkibini tahlili shuni ko‘rsatadiki, mintaqada qishloq xo‘jaligi o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida 1.1 % kamayish yuz berishiga qaramasdan, uning umumiy yakuniy natijadagi ulushi 51.6 foizni tashkil qildi, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1.6 foiz ortiq bo‘ldi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yalpi mintaqaviy mahsulotdagi ulushi 2023-yil mobaynida 19.3 foizni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 foizga ortiqni tashkil qiladi. Xizmatlar sohasining YAHMdagi ulushi esa 29.1 foizni tashkil qilib o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2.9 foizga kamaygan.

Yuqorida keltirilgan tahlillar natijasida mintaqa iqtisodiy tizimida foydalanish mumkin bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy salohiyat yetarli darajadiligini, bor imkoniyat va mablag‘larni ishga solib mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish masalasi bugun va kelajakdagi faoliyatimiz tub mezoni bo‘lishi, kelgusi avlodlar uchun ijobiy turmush sharoitlarini, ekologik sof muhitni ta’minlash muammolari oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning uzoq muddatli davrlarga mo‘ljallangan strategiyasi yo‘nalishlarini belgilash, o‘rta muddatli davrga strategik prognozlarni ishlab chiqish zarur. Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishni prognozlarni ishlab chiqish bugungi kunda bevosita ekonometrik modellar va ekonometrik dasturiy paketlar asosida amalga oshirilib keyingi paragraflarda ushbu masalalar ko‘rib chiqiladi.

Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirish, mintaqadagi iqtisodiy jarayonni tartibga solish va mintaqa iqtisodiy tizimini murakkab tuzilma ekanligini e’tiborga

olsak, tizimni barqaror rivojlantirishda ko'p omilli ekonometrik modellardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

A.Anderson, J.Mansinenlar o'zlarining tadqiqotlarida bir qancha mintaqaviy o'sishning innovatsion modellarini ko'rsatib berganlar. Ular mintaqaviy innovatsion rivojlanish omillari sifatida 2 guruhni ko'rib chiqadilar:

